

Zar qadrini zargar bilar yoki darslik ko'rga hassa emas!

U ona tili ta'limidagi mavjud chayir an'analar panjarasini buzib, tashqariga chiqq oldi. Bugungi ta'limning asosiy maqsadi ham aslida shu. Biroq har qanday yangilik birdaniga tushunarli bo'lib, hammaga ma'qul keladi, deyish orzudan boshqa narsa emas. Zero, jamiyatda aqidaparastlar noan'anaviy fikrlorichlardan, konservatorlar innovatorlardan ancha ko'p, ularning nisbatini aniqlashda ham kamida 80 ga 20 qoidasi amal qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, "Telegram" kanalari orqali o'qituvchilar fikrini o'rganar ekanmiz, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, mahoratli o'qituvchilar darslikdan foydalanish qanday maroq bag'ishlayotgani, o'quv topshiriqlarini bajarganda o'quvchilarining ishtiyok ortayotgani haqida yozishmoqda. Shuncha "Ona tili" darsliklari bor, biroq faqat yangi 8-sinf darsligigina mamlakat o'qituvchilarini hamkorlikda ishlashga, tajriba almashishga undadi. Minglab o'qituvchining bir kana**(8-sinf tahlil guruhi)**ga jam bo'lishi, shubhasiz, darslikning qiymati va mazmuniga, undagi o'quv topshiriqlarining sifatiga ishora qilayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.



Zar qadrini zargar biladi, deydi dono xalqimiz. Ushbu darslik orqali mamlakatning 8-sinf o'quvchilari tilimizga xos bo'lgan katta so'z boyligiga, asosiysi, nutqiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishmoqda. Darslikdagi "Radionutq tayyorlang", "Telenutqqa tayyorlaning", "Diagrammani izohlang" kabi qiziqarli topshiriqlar har qanday o'quvchida tilni egallashga ishtiyok paydo qiladi. Darslik tamomila o'quvchini hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan. Grammatik ma'lumotlar ataylab boshqa o'quv materiallari soyasida qoldirilgan.

Zamonaviy darslikka tomon tashlangan dastlabki qadam bo'lgani bois u ayrim xatoliklardan, maromiga yetmagan nuqtalardan ham xoli emas. Nazariy ma'lumotlarning ayrimlari munozarali bo'lsa-da, o'quvchiga ilmiy xabardorlik nuqtayi nazaridan vaqtincha qoldirildi. Ayrim bilimdon o'qituvchilar grammatikabozlikka o'rganib qolganligi uchun hali ham ularning sinfdagi hamma o'quvchini tilshunos qilish niyati mazkur no'ananiy darslikdan ham grammatik xatolik izlashlariga sabab bo'lmoqda. Repetitorlikni hayot va faoliyat tarziga aylantirib olgan ba'zi o'qituvchilar "Shuni bola"daagi "Abo Muslim" jangnomasini o'qiyotgan bangillar kabi jamiyat taraqqiyoti va shaxs takomili uchun bir pulga ham arzimaydigan grammatik qoidalarini muhokama va munozara mavzusiga, ona tili ta'limining bosh maqsadiga aylantirib olib, "grammatik kaltak"lar bilan raqiblarini mot qilishdek o'ta bachkana ishlar bilan shug'ullanayotgani nafaqat kulgili, balki yig'laguli, achinarli. Muhtaram o'qituvchi, asosiy maqsadimiz "o'quvchilarning ijodiy tafakkurini yuksaltirish, tafakkur mahsulini og'zaki va yozma shakllarda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon ifodalash malakasini yuksaltirish"dan iborat ekanligini, buning natijasi esa uch mezon — **1) o'qish texnikasi; 2) o'z fikrini to'g'ri va ravon ifodalash; 3) o'zгалar fikrini to'g'ri va aniq anglash** asosida baholanishini

unutmaylik. Baholash mezonlari sirasida "lingvistik bilimlar" degan joyi yo'q. "Sodda kesim" va "murakkab kesim" tushunchasi og'zaki va yozma nutq takomili uchun qanchalik zarur, bu tushunchalar amaliy natija uchun (albatta, OTMga kirishni amaliy natija deyish kerak emas) ishlayaptimi, agar ishlamasa, bu tushunchalardan ham voz kechib, faqat "kesim" tushunchasini qoldirish kerakdir. O'quvchini ega, kesim kabi bilimlar asosida emas, ega va kesimni to'g'ri qo'llash malakasi bo'yicha imtihon qilish davriga qadam qo'ymoqdami. Axir, ona tili ta'limida ham avtomaktablardagi bitiruvchilar avtomobilning ichki qurilishi bo'yicha emas, balki avtomobilni boshqarish bo'yicha imtihon topshirishlaridan ibrat olishimiz kerak emasmi? Nahotki, ona tili ta'limi tizimida mohiyat avtomaktablardagi-chalik ham anglay olinmasa? Qiyos uchun kechirim so'rayman, ammo bu achchiq haqiqat!

Darsliklarda ortiqcha grammatizmni keskin qisqartirish Xalq ta'limi vazirligi ona tili ta'limi bo'yicha siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Ona tili" darsliklarida o'quvchida ravon nutq, teran tafakkur, ijodiy fikrlash qobiliyatini, o'qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallarigina o'rln oladi. O'qituvchilarimiz til o'qitish va tilshunoslik muammolarini, ona tili ta'limining yuqorida zikr etilgan va ataylab ajratib ko'rsatilgan bosh maqsadini aniq farqlab olmagunlaricha tushunmovchiliklar, noo'rin e'tirozlar bo'lib turaveradi. Ma'lumot uchun aytib o'tish lozimki, dastur va darsliklar mazmuni 1-sinfdan 11-sinfga cha tubdan qayta ishlab chiqiladi, o'zgaradi. Ona tili o'qitish metodikasi yangilanadi. Endi zamonaviy o'qitishga o'tiladi, 8-sinf "Ona tili" darsligi bizni ana shu jarayonga qisman bo'lsa-da tayyorlagani bilan ham qimmatli. Biz uni o'tish davri darsligi deb baholash barafdorimiz.

Darsliklarda kesimning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar ziddiyatli ekanligini e'tirof

Kesimning murakkabligi, so'z birikmalari zanjiri bo'lajak tilshunosga kerak, ko'ksi orzuga to'la o'quvchiga esa nutqiy kompetensiya, uquv kerak.

etamiz. Bu va bu kabi masaladagi har qanday talqinda o'qituvchilar qarama-qarshi guruhlarga bo'linib qolaveradilar. Bunga 8-sinf darsligidagi ushbu qoidalarini o'quvchilar yoshiga moslashtirish harakatimiz natijasida amin bo'lib turibmiz. Chunki ushbu masalaning o'zi bo'yicha fanda yakdil qarash yo'q. Muammo yechimi bitta — darsliklarda shunday chalkash tushunchalardan voz kechish vaqti keldi. Muallif professor Baxtiyov Mengliyev darslikning ilk variantida murakkab bo'lak (kesim) deganda faqat so'z birikmasi bilan ifodalangan kesimni olish fikrida edi. Biz mas'ul muharrir va taqrizchilar ustozni hozirgi holatga ko'ndirgan edik. Chunki murakkab so'z va murakkab kesim tushunchasini birmuncha yaqinlashtirish o'quvchilarni anglashilmovchiliklardan saqlar edi. Garchi ustozning fikrlari ilmiy haqiqat bo'lsa-da, yana chalkashliklarni keltirib chiqarar, bu ilmiy tushunchaning amaliy ahamiyati esa zarraning zarrasidan ham kam bo'lar edi.

Darslikka nisbatan bildirilayotgan ayrim e'tirozlar, jumladan, mashq va topshiriqlarning ko'pligi masalasi (ko'proq berilgan imkoniyat-ku, tanlab olish mumkin bo'ladi) o'qituvchilarning tushunmasligi, to'g'rirog'i, tushuntirilmagani bilan bevosita bog'liq. Hozir bu darslikdan vaqtincha bo'lsa-da, Prezident maktablarida ham, ijod maktablarida ham, ixtisoslashtirilgan sinflarda ham foydalanilmoqda.

"Bu ma'lumot darslikda yo'q, olib tashlangan" degan e'tiroz endi qabul qilinmaydi. O'qituvchining vazifasi nimadan iborat? Darslikda borini aytib berishmi? Unda o'qituvchining o'quvchidan farqi nimada? Yaqin kelajak ta'limi darslikdan tashqariga ham chiqadi, topshiriq orqali lug'at va kerakli boshqa manbalarga bog'lanish, izlash, topish, solishtirish, yaratish kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishni vazifa ham qilib qo'yadi. Endi ona tili darsliklari repetitor-o'qituvchilarga tilshunoslik nazariyasiga doir gipotezalarni asoslash vositasi, abituriyentlarga tushuntira olmagun fikrlarni dalil-lash, bahslashganda "garov" kabi vazifalarni bajarmaydi, o'quvchilarda adabiy tilda gapirish, savodxon yozish, ifodali o'qish, ish qog'ozlarini yuritish va muloqot madaniyatini rivojlantirish manbavi bo'lib xizmat qiladi. U, avvalo, o'quvchi kitobi. O'qituvchi bilimini boshqa manbalardan boyitsin, qo'ldan kelsa, zarur o'rnlarda darslikning kamchiliklarini to'ldirsin.

Xullas, grammatik ma'lumotlar bilan bog'liq "chalkashlik" deb e'tirof etilayotgan tushunmovchiliklar keyingi nashrlarda olib tashlanish ehtimoli katta. O'zbek o'quvchisi grammatik bilim asosida gapirmaydi, kesimning murakkabligi, so'z birikmalari zanjiri, bititush yoki moslashuv ekanligi bo'lajak tilshunosga kerak, ko'ksi orzuga to'la o'quvchiga esa nutqiy kompetensiya, uquv kerak. Amaldagi darslikda ona tilini o'rganish imkoniyati mavjud.

Keling, bundan keyin grammatik mavhumliklar bo'yicha emas, ona tili ta'limining bosh maqsadini ro'yogba chiqarish yo'li — o'qitish metodikasi, til imkoniyatlarini o'quvchilarga singdirish, so'z ta'limi bo'yicha bahs yuritaylik. Ona va biza millat ravnaqi, yurt taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

G'ofir HAMROYEV,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Fikrlash qobiliyatini faollashtirish, nutqini rivojlantirish uchun darslik va uslubiy qo'llanmalar bilan ishlash jarayonida o'quvchi matnni tushunishi va uni eslab qolishi kerak. O'qib chiqilgan matnni muayyan shakl, ko'rinishda tasavvur qilish, materialni mazmuniga ko'ra tasniflash, asosiy mazmunini belgilovchi o'rnlarni ajratish, materialni qayta joylashtirish, matnning qayta bog'langan qismlarini qo'shish, reja tuzish kabi usullar matnni puxta o'zlashtirish imkonini beradi. Mantiqiy fikrlash natijasida fikr eslab qolinadi.

Bizga manzur bo'ldi

Masalan, 8-sinf "Ona tili" darsligidagi "Kesim" mavzusini olaylik. Yangi tahrirdagi "Ona tili" darsligida bu mavzuda qoidalar, mashqlar qayta ishlangan. O'quvchilar yangi mavzuni yaxshi o'zlashtirishlari uchun mavzuga mos integratsiya singdirilgan mashqlar berilgan. Eski 8-sinf "Ona tili" darsligida fe'l kesim hamisha sof fe'l — fe'lning tuslangan shakllari bilan ifodalangani, deyilgan. Masalan: Men maktabga boraman. Yangi tahrirdagi darslikda esa fe'l kesim sof fe'l, ba'zan esa ravishdoshning **-guncha** shakli orqali ifodalaniishi aytilgan: *Ishning boshi boshlanguncha.*

Eski darslikda ot kesim ot, sifat, son, olmosh, ravish, modal so'z, harakat nomi va sifatosh bilan ifodalangani, deyilgan. Yangi tahrirdagi "Ona tili" darsligida ot kesim ot, sifat, son, olmosh, ravish, modal so'z, harakat nomi, sifatosh, taqlid va undov so'z bilan ifodalangani, deb qoidaga kiritilgan. Endi savol tug'ilishi tabiiy: sifatosh fe'l kesim bo'lib keladimi yoki ot kesim? Albatta, sifatosh fe'l kesim bo'lib keladi. Masalan: *Xat kecha yuborilgan.* Agar sifatosh otlashgan bo'lsa, fe'l kesim emas, ot kesim bo'ladi. Masalan: *Bular — taniganlarim.* Mazkur holatda sifatosh otlashgan. Sifatosh bog'langan ot tushib qolganda sifatosh otlashadi. Mantiqan otlashgan sifatosh kesim bo'lib kelganda u bog'langan so'zning ot ekanligini e'tiborga olsak, uning ot kesim bo'lib kelishi to'g'ridir.

Yigit kishining uyalgani — o'lgani, *eman daraxtining egilgani* — singani. Bu — otlashgan sifatosh. Endi shu gapda tushib qolgan egani tiklaymiz: *Yigit kishining uyalgan holati* — o'lgan holati(*dir*), *eman daraxtining egilgan holati* — *singan holati(dir)* (Maqol). Xulosa qilib aytganda, otlashgan sifatosh ot kesim vazifasini bajaradi. Shu bilan birga quyida harakat nomi, taqlid va undov so'zlar ham ot kesim vazifasida kelishiga amin bo'lamiz.

Harakat nomi bilan: *Burchimiz* — *a'lo o'qish.* Taqlid so'z bilan: *Ko'chada odam g'uj-g'uj.*

Undov so'z bilan: *Endi uning holiga voy.* Demak, fe'l kesim ish-harakatni, ot kesim narsaning turi yoki belgisini ifodalaydi. O'quvchilarga qiyoslab o'rgatish orqali ham bu mavzuni yaxshi singdirish mumkin.

Yangi tahrirdagi darslikning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda ko'pincha lug'atlar bilan ishlash maqsadida "Matn va lug'atlar bilan ishlash" mavzulariga soatlar ajratilgan. Chunki o'quvchi nutqining rivojlanishi uchun uning so'z boyligi qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi..

Malika XO'JAYEVA,
Hazorasp tuman
XTB ona tili va adabiyot
fani metodisti

Yangi darslik: E'TIROF-U E'TIROZLAR...

"Ma'rifat" gazetasiyning o'tgan yilgi nashrlarida ona tili ta'limi bilan bog'liq juda ko'p maqolalar chop etildi. Xususan, til ta'limiga e'tibor, ona tili darsliklari haqidagi bir necha mulohazalar mushitariylar e'tiboriga havola etildi. Bugun biz yana yangi chop etilgan darsliklarning yutuqlari va kamchiliklari haqida to'xtalsak.

Adabiyotshunoslarga va endi 8-sinf o'quvchilariga ham yaxshi tanish bo'lgan Jaloliddin Rumiyning "Tilshunos va qayiqchi" hikoyatidan kelib chiqadigan xulosa 8-sinf "Ona tili" darsligi uchun maqsad qilib olingandek qo'yo. Chunki sinfdagi hamma o'quvchi filolog bo'lmaydi. Ular orasida boshqa kasb etagini tutadiganlar ham bor. Darslikning juda ko'p topshiriqlarida, mashqlarida shu masalaga jiddiy e'tibor berilgani yangi 8-sinf "Ona tili" darsligining hamma kutgan yutug'i desak adashmaymiz.

Ta'limning maqsadi — o'quvchini shaxs sifatida hayotga tayyorlash. Darslikda keltirilgan rivoyat, hikoyatlar, hattoki mashqlarda tahlillar uchun berilgan gaplar nafaqat tilning grammatikasini o'rgatishga, balki o'quvchini mulohazaga chorlovchi fikrlar ekanligi, ayniqsa, e'tirofga sazovor. Darslik mualliflari hikoyatlarni, mashqdagi gaplarni tanlashda kreativlik — ijodkorlik tamoyiliga amal qilishgan. "Fil hikoyati", "Hunar xosiyati", "Amir Temur va Me'mor", "Bir sahifa sharhi", "Tilshunos va qayiqchi", "Hilm nima" kabi hikoyatlar fikrimiz dalilidir. Keling, darslikni birgalikda o'qiyimiz.

Quyiy sinflarda o'rgatilgan qoidalarning ayrimlari eslatma tarzida berib o'tilishi o'quvchining shu mavzuga daxldor mashqlarni bajarishiga kalit vazifasini bajaradi. Masalan, 3-dars "Mustaqil so'zlar" mavzusini takrorlash. 8-betda shu mavzuga oid eslatma bor.

Mashqlarda so'zlar izohining havola etilishi va bu izohlar to'g'ridan to'g'ri taqdim etilmay aralash holatda kelishi o'quvchini mustaqil ishlashga ham majbur qiladi. Bu kabi mashqlar berilgan so'zlardan og'zaki nutqda to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. Masalan, 31-mashqda *insho, bilim, ko'nikma, malaka, tafakkur, izlanish, mas'uliyat* kabi so'zlar izohi berilgan (18-bet). Aslida, bu so'zlarning barchasi ilmgaga doir harakatlarni ifodalaydi.

12-dars "Inshoning mavzu va mazmuniga ko'ra turlari". Avvalgi darsliklarda insholar bu tasnifga ko'ra adabiy, adabiy-ijodiy, erkin mavzudagi insholar bo'lingan. Chindan ham adabiy va adabiy-ijodiy insholar orasida deyarli farq yo'q edi. Yangi darslikning yutug'i bu tasnifga ilmiy insho turi kiritilgan. Darslikda ilmiy inshoga namuna berilgani, ayniqsa, tanlangan inshoning zamon bilan hamnafasligi hozirgi ta'limdagi ustuvor yo'nalishlardan biri kompetensiyaviy tamoyil talablariga juda mos keladi (qarang: 30-bet "Globallashuv va tillar taraqqiyoti").

"So'z birikmasi" mavzusidagi ta'rif avvalgi darsliklarimizdagi kabi o'ta murakkab, mavhum emas. Ta'rif 8-sinf o'quvchisi uchun xos tilda berilgan. So'z qo'shilmasi haqidagi ta'rifga nisbatan ham shu fikrlarni aytish mumkin.

36-betdagi o'tli so'z birikmasi, fe'lli so'z birikmasi haqidagi qoidalar avvalgi darsliklarimizda aks etmagan edi. Odatta o'qituvchilar bu qoidalarini boshqa qo'shim-

cha manbalar asosida o'rgatardi. Darslikda bu qoida o'quvchi uchun juda tushunarli tarzda berilgan.

37-betdagi "Bilib oling" ruknida keltirilgan qoida tilimiz uchun, og'zaki nutq uchun eng muhim bo'lgan uchta birlikni tavsiflab, ular orasiga aniq chegara qo'yib qo'yg'an (so'z birikmasi — so'z qo'shilmasi — qo'shma so'z).

Shu sahifadagi 62-mashq o'quvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan.

25–26-dars "Adabiyot" bilan bevosita

o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'ziga bir dunyo xulosa olishi tayin. Mashqlarda keltirilgan har bir fikr saralab olingani tahsinga loyiq.

Yangi darslikda avvalgi 8-sinf "Ona tili" darsligidagi bir necha xato va kamchiliklar tuzatilgan. O'ta ilmiy, faqat filologlarga bilishi kerak bo'lgan qoidalardan voz kechilgan. Taqqoslash uchun avvalgi darslikdagi xato va kamchiliklarni aynan keltirishni lozim topdik (1-jadvalga qarang).

Bundan tashqari, ajratilgan bo'laklar

Eski darslik	Amaldagi yangi darslik
<p><i>Gap bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Gap so'z birikmasidan kesim va ega yoki faqat kesim bo'laklariga aloqador grammatik asosga egaligi bilan farq qiladi, so'z birikmasi tushuncha, gap fikr ifodalaydi. Grammatik asosda gapning fikriy mundariyasi ifodalangani. Bu fikriy mundarija fe'l kesimning mayl va zamon ma'nolari bilan bog'liq bo'ladi</i> (35-dars, 45-bet).</p> <p><i>E'tibor bering, qoidadagi birinchi gapda, xabar, so'roq, buyruqni ifodalovchi sintaktik butunlik gap deb ko'rsatilgan. Istak gaplar nazarda tutilmagan. Gapning so'z birikmasidan farqi grammatik asosga egaligi, darsligimizda esa grammatik asos tushunchasiga aniq bir ta'rif berilmagan. Shu tushunchada mavhumlik bor: grammatik asos ega va kesimni yoki kesimning o'zi? Fikriy mundarija grammatik asosda ifodalaniшинi va bu fe'l kesimning mayl va zamon ma'nolari bilan bog'liqligini hisobga olsak, demak, faqat kesim, aynan fe'l kesim nazarda tutilmoqda, deb xulosa chiqarish mumkin. Qoidaga misol tariqasida berilgan gaplar faqat fe'l kesimli gaplar ekanligining o'ziyoq shu fikrga kelishiga undaydi. Grammatik asos tushunchasi darsligimizning yana bir necha o'rnlarda ham keltirilgan.</i></p>	<p>So'z yoki so'zlar vositasida anglashilgan fikr gap deyiladi (40-bet).</p> <p>(Bu 8-sinf uchun eng qulay, tushunishga oson, sodda, ammo tog'ri, aniq ta'rif).</p>
<p><i>Nutqimizdagi gaplar bir yoki ikki grammatik asosdan, ba'zan esa ikkidan ortiq grammatik asosdan tuzilishi mumkin. Shu jihatdan gaplar ikkiga bo'linadi: 1) sodda gaplar; 2) qo'shma gaplar. Grammatik asosi bitta bo'lib, ma'lum bir fikrni (ba'zan unga qo'shimcha ravishda his-hayajonni) ifodalovchi gaplar sodda gap deyiladi... (51-bet).</i></p> <p><i>Grammatik asoslarning miqdoriga ko'ra gaplar sodda (bir grammatik asosli) va qo'shma (ikki va undan ortiq grammatik asosli) gaplarga bo'linadi</i> (54-bet).</p>	<p>Bir xabarni ifodalovchi gap sodda gap hisoblanadi. Birdan ortiq xabarni yaxlitlashtirib ifodalaydigan gap qo'shma gapdir (45-bet).</p>
<p><i>Ot-kesimlarning ifodalaniшинi bilan bog'liq quyidagi bandga e'tibor bering: h) harakat nomi bilan: Chin so'zni yolg'on demak xub emas, dog'i bori chin degulik emas</i> (A.N.). <i>Aslida XV asr tilining bu tarzda tahlil etilishini 8-sinf o'quvchisi qay tarzda qabul qilib, idrok eta oladi? -gulik harakat nomi shaklimi? "degulik emas"ning o'zi kesimmi? (59-bet).</i></p>	<p>7) harakat nomi bilan: Burchimiz — a'lo o'qish (53-bet).</p>
<p><i>Bilib oling. Murakkab ot kesimlar ot (keng ma'noda) + bog'lama vazifasida kelgan yordamchi fe'l yoki ko'makchi fe'l tarzidagi so'zshilishdan hosil bo'ladi. Bunda asosiy ma'no otdan anglashiladi, ko'makchi yoki to'liqsiz fe'l qo'shimcha ma'no bildiradi va kesimning ega bilan bog'lanishini ta'minlaydi.</i></p>	<p>Birdan ortiq so'zdan iborat kesim murakkab kesim deyiladi: O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat (54-bet).</p>

bo'lgan. Umuman, mumtoz matn va ular bilan ishlash darslari yangi avlod darsligidagi muhim jihatlardan biridir.

27-dars til ta'limidagi eng chiroyli va eng zarur dars deb o'ylayman. O'qituvchi bu darsni to'g'ri tashkil eta olsa, har bir o'quvchisining yangi qirralarini kashf etadi, so'zlash qobiliyatini rivojlantira oladi. Prezidentimiz Oliy Majlis palatalari qo'shma yig'ilishida qilgan ma'ruzasida ona tilimizni o'rganishda IELTS baholash tizimiga o'xshash tizim yaratish haqida taklif berildi. Bu borada tegishli ishlar amalga oshirilayotgan bir pallada darsliklarimizda bu kabi mashqlar berilishi ayni muddado. Ona tilidan ayrim nazorat ishlarining og'zaki tashkil etilishi o'quvchining to'g'ri so'zlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki SO'ZLASH yangi taklif etilayotgan tizimda asosiy baholash omillaridan biri bo'lishi nazarda tutilgan.

43-, 44-darslarda ham shu jihatga alohida e'tibor berilgan.

78-, 79-, 80-mashqlar bilan ishlagan

bilan bog'liq tinish belgilarining qo'llanishida ham yakdil fikr berilishi yangi darslikning yutug'idir. 121-betdagi qoidada *qaysi holatda vergul, qay holatda tire ishlatilishi aniq izohlangan.*

2019-yilgi 8-sinf "Ona tili" darsligining so'nggi qismida xatolarni tuzatish varag'i joylashgan. Darslikni kuzatar ekanmiz, ayrim masalalarda mualliflarning fikri bizni qiziqitirdi.

21-betda "Alisher Navoiy — g'azzal mulking sultoni" mavzusiga insho rejasi namuna sifatida berilgan.

...Asosiy qism:

- Alisher Navoiyning oshiqona g'azzallari.
- Alisher Navoiyning orifona g'azzallari.
- Alisher Navoiyning rindona g'azzallari.

Xulosa. Alisher Navoiy g'azzallari — o'zbek she'riyatining mezon.

8-sinf o'quvchisida oshiqona, orifona, rindona g'azzallar haqida ma'lumot yo'q. Xulosaadagi rejada ham biroz g'alizlik bor.

23-betda "Hamid Olimjon — baxt va shodlik kuychisi" mavzusiga reja namunasi ko'rsatilgan.

...Asosiy qism...

1. Shoir ijodida shaxs fojiasi tasviri. Mazvu va reja mantiqan o'zaro nomuvofiq.

25-bet... Erkin mavzudagi insho omma-bop uslubda yoziladi. Bizningcha, bunday insholar badiiy uslubda yoziladi.

50-bet "...Sodda gapda to'liq shakllangan kesim bitta bo'ladi. Ega va hol to'g'ridan to'g'ri kesimga bog'lanadi".

Sodda gapda hol kesimga bilvosita bog'lanishi mumkin: *Daladan charchab kelgan yigiti tezda uxlab qoldi.* "Daladan" holi "charchab kelgan" aniqlovchiga bog'lanib, keyin kesimga bog'langan.

1-jadval

52-bet Eslatma: -guncha qo'shimchasini olgan ravishdoshgina kesim bo'lib kelishi mumkin.

Bizningcha, shu o'rinda bu fikr faqat sodda gaplarga taalluqligini eslatib o'tish lozim. Darsligimizning bu kamchiliklari kelgusida bartaraf etilishiga ishonchimiz komil. Lekin alohida e'tirof etish kerak bo'lgan yutuqlar ham talaygina. Ayniqsa, sodda va murakkab rejaga ta'riflar, ularning farqi nazariya sifatida avvalgi darslikka kiritilmagan edi. 117-, 118-mashqlar, 100-topshiriq darslikning yana bir yutug'i, chunki bu kabi mashqlar o'quvchining intellektual salohiyatini o'stiradi. Demak, darslik mualliflari yangi darslik yaratishda avvalgi muammolarimizni bartaraf qilishga urinishgan va ma'lum ma'noda bunga erishishgan ham.

Gulnoza XOLDOROVA,
Namangan tumanidagi 21-IDUMI
ona tili va adabiyot o'qituvchisi,
"Darsliklarni birgalikda takomillashtiraylik"
onlayn tanlovi g'olibi